ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 1

# DEVELOPMENT OF SCIENCE

## ILMIY JURNAL



# Development of science

## Ilmiy jurnal

*2026/4 VOLUME 1*

*ISSN 3030 -3907*

***Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.***

**BOSH MUHARRIR:**
***Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.***
**TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:**
***Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor***
***TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI***

**TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Bozorov G‘ayrat Rashidovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Abdurahmonov Olim Rustamovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Adizov Bobur Zamirovich***
*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor*
***Hayitov Ruslan Rustamjonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Jumayev Qayum Karimovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Berdiyev Dorob Murodovich***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Maxmudov Rafiq Amonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Tilloyev Lochin Ismatilloyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Raxmonov Qahramon Sanakulovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Barakayev Nusratullo Rajabovich***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Panoyev Erali Rajabboyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Ataullayev Sherzod Nabiullyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Murodov Malik Negmurodovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Axmedova Ozoda Bahronovna***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.*
***Safarov Bahri Jumayevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Xaydarov Axtam Amonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Safarov Jasur Alijon o‘g‘li***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Асадова Раъно Дилмуратовна***
*Тошкент Давлат техника университети доценти*

**KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Axmedov Voxid Nizomovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Umarov Baqo Bafoyevich***
*Buxoro Davlat Universiteti, professor*
***Kodirov Abduaxad Abduraximovich***
*Qarshi davlat Universiteti, professor*
***Qurbonov Mingniqul Jumagulovich***
*Qarshi davlat Universiteti, dotsent*
***Turemuratov Sharibay Naurizbaevich***
*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor*
***Tursunov Kaxor Shonazarovich***
*Qarshi davlat Universiteti, professor*
***Do‘stov Hamro***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Panoyev Nodir Shavkatovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Kasimov Sherzod Abduazimovich***
*Termiz Davlat Universiteti, professor.*
***Aliqulov Rustam Valiyevich***
*Termiz Davlat Universiteti, professor*
***Tropov Xamza Tursunovich***
*Samarqand Davlat Universiteti, professor*

**IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Nizamov Aslitdin Badreddinovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Boboyev Akmal Choriyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor*
***Saidaxmedova Nodira Ilxomovna***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor*
***Muxsinov Bekzod Toxirovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Shakarov Qulmat Ashirovich***
*Renessans ta'lim universiteti,dotsent.*
***Jumaeva Zulfiya Qayumovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Norova Salomat Yusupovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Jalilov Jamshid G‘anijonovich***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent*
***Xasanova Gulruh Djumanazarovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*

**PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Siddiqova Sadoqat G‘afforovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Zoyirov Erkin Xalilovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor*
***Gaffarov Feruz Hasanovich***
Puchon Universiteti, *professor*
***Ruziyev Davron Yuldashevich***
*Buxoro Davlat Universiteti, professor*
***Muradova Firuza Rashidovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Yunusova Gulandon Samiyevna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***To‘xtayeva Zebo Sharifovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Uzoqova Laylo Polvonovna***
*Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.*
***To‘raqulova Marjona Qiyom qizi***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Muradova Zarina Rashidovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Murodov Sanjar Aslonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent*
***Gaffarov Laziz Hasanovich***
*Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.*

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.



ISSN 3030-3907

**Development of science** ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.



ISSN 3030-3907

# BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI HUDUDIY IXTISOSLASHTIRISH ASOSIDA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH YO‘LLARI

**Akramova Obida Qosimovna**
*Bukhara State Technical University Associate professor of the Department of Economics and management*
*Email: akramova3932@gmail.com*
**Qahorova Shahzoda Negmurod qizi**
*Bukhara State Technical University Student of Economics*

**Annotatsiya.** Maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xomashyo ko‘rinishida eksport qilish o‘rniga, ularni qayta ishlash va tayyor mahsulot sifatida tashqi bozorga chiqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishi ilmiy jihatdan izohlangan. Shuningdek, suv resurslari cheklangan sharoitda nisbatan kam suv talab qiladigan ekinlarni rivojlantirishning hududiy ustunliklari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** qishloq xo‘jaligi, hududiy ixtisoslashtirish, investitsion salohiyat, investitsiya strategiyasi, qayta ishlash sanoati, eksport salohiyati

**Аннотация.** В статье научно обосновано, что переработка сельскохозяйственной продукции и ее экспорт на внешние рынки в виде готовой продукции вместо экспорта в виде сырья повышает экономическую эффективность. Также показаны территориальные преимущества выращивания культур, требующих относительно небольшого количества воды в условиях ограниченности водных ресурсов.

**Ключевые слова.** сельское хозяйство, территориальная специализация, инвестиционный потенциал, инвестиционная стратегия, обрабатывающая промышленность, экспортный потенциал

**Abstract.** The study highlights the advantages of cultivating relatively low water-intensive crops under conditions of resource constraints and emphasizes the importance of spatial concentration of processing facilities to optimize logistics and reduce transaction costs. Furthermore, policy mechanisms aimed at stimulating investment in low-attractiveness territories are proposed, including tax incentives, institutional support, and innovation promotion centers.

**Keywords.** agriculture, territorial specialization, investment potential, investment strategy, manufacturing industry, export potential

## KIRISH.

Buxoro viloyatining barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash maqsadida, investorlarni jalb qilish bo‘yicha kompleks strategiyani ishlab chiqish zaruriyati tug‘ilmoqda. Ushbu investitsiya strategiyasi, birinchi navbatda, Buxoro viloyatining asosiy investitsiya ustuvorliklarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bu



ISSN 3030-3907

ustuvorliklar viloyatning iqtisodiy salohiyatini, resurslarini va mavjud infratuzilmasini hisobga olgan holda belgilanishi kerak.

Shuningdek, qulay investitsiya muhitini shakllantirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlardan iborat kompleks tadbirlar rejasini ishlab chiqish muhimdir. Bu chora-tadbirlar tarkibiga investorlar uchun kutilayotgan samaralar va imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan davlat rag‘batlari, soliq imtiyozlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kiritilishi kerak.

Bundan tashqari, investitsiya strategiyasining amalga oshirilishi uchun aniq yo‘l xaritasi taklif etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘l xaritasi taklif etilayotgan investitsiya loyihalari, muddatlar, mas'ul shaxslar va zaruriy resurslarning batafsil tavsifini o‘z ichiga olishi kerak. Investitsiya strategiyasi va yo‘l xaritasi Buxoro viloyatining iqtisodiy holatini mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Quyida hududlar bo‘yicha yetishtirilgan qishloq xo‘jalik maxsulotlarini haqida ma’lumot keltirilgan va qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirishga hamda qayta ishlashga ixtisoslashtirish loyihasi taklif qilinmoqda. (1-jadval)

**1-jadval**

**Qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirishga va qayta ishlashga ixtisoslashtirish loyihasi[4].**

| Qishloq xo‘jalik maxsulotlari | Yetishtirilgan qishloq xo‘jalik maxsulotlari | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Qorako‘l | | Jondor | | Olot | | Jami | |
| | hajmi, ming tonna | viloyatdagi ulushi % | hajmi, ming tonna | viloyatdagi ulushi % | hajmi, ming tonna | viloyatdagi ulushi % | hajmi, ming tonna | viloyatdagi ulushi % |
| **Uzum** | 18,6 | 8,4% | 29,4 | 13,2% | 7,7 | 3,5% | 55,7 | 25,1% |
| **Meva va rezavorlar** | 21,7 | 7,2% | 71,3 | 23,6% | 10,9 | 3,6% | 103,9 | 34,4% |
| **Poliz** | 17,1 | 8,4% | 24,7 | 13,5% | 21,2 | 10,4% | 63,0 | 32,3% |
| | **Shofirkon** | | **Vobkent** | | **Peshku** | | **Jami** | |
| **Uzum** | 25,4 | 11,1% | 24,3 | 11,0% | 14,7 | 6,6% | 64,4 | 28,7% |
| **Meva va rezavorlar** | 25,0 | 8,2% | 23,4 | 9,7% | 30,7 | 10,1% | 79,1 | 28,0% |

[4] Muallif ishlanmasi.




ISSN 3030-3907

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Poliz ekinlari** | 10,3 | 5,1% | 7,3 | 3,6% | 40,3 | 19,8% | 57,9 | 28,5% |
| | **Qorovulbozor** | | **Buxoro** | | **Kogon** | | **Jami** | |
| **Uzum** | 1,7 | 0,8% | 43,8 | 19,8% | 5,1 | 2,3% | 50,6 | 22,9% |
| **Meva va rezavorlar** | 4,2 | 1,4% | 39,2 | 12,9% | 9,7 | 3,2% | 53,1 | 17,5% |
| **Poliz ekinlari** | 22,9 | 11,3% | 16,7 | 8,2% | 4,1 | 2,0% | 43,7 | 21,5% |

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, Jondor tumani meva va rezavorlar yetishtirishda viloyatdagi ulushi 23,6%, Qorako‘l tumanining viloyatdagi ulushi 7,2% va Olot tumaninning viloyatdagi ulushi 3,6%ni tashkil etganligiga qarab, bu tumanlar hududiy jihatdan yaqinligini inobatga olindi. Shunindek, poliz ekinlarini yetishtirish bo‘yicha Peshku tumanining viloyatdagi ulushi 19,8%ni hamda unga yaqin tumanlar Shofirkonning viloyatdagi ulushi 5,1%ni va Vobkentning viloyatdagi ulushi 3,2%ni tashkil etganganligi hisobga olindi. Shu bilan birga, uzum yetishtirish bo‘yicha Buxoro tumanining viloyatdagi ulushi 19,8%ni hamda unga yaqin tumanlar Kogonning viloyatdagi ulushi 2,3%ni, Qorovulbozorning viloyatdagi ulushi 0,8%ni tashkil etganligidan foydalanib, bu hududlarni yetishtirilgan maxsulotlarni bir hududga yig‘ish va qayta ishlash mumkin. Tahlillar asosida tumanlarni qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Yaqin hududlarning imkoniyatlarini birlashtirish asosida qishloq xo‘jalik maxsulotlarini qayta ishlash korxonalarini tashkil etish mumkin. (1-rasm)



ISSN 3030-3907




**1-rasm. Buxoro viloyatida oziq-ovqat maxsulotlarini qayta ishlash korxonalarini tashkil qilish imkoniyatlari[5]**

1-rasmdan ko‘rish mumkinki, Jondor, Qorako‘l va Olot tumanlarida bir yilda 3 ta tumanda viloyatning 34,4% meva va rezavorlari, Shofirkon, Peshku, Vobkent tumanlarida esa viloyatning 28,5% poliz ekinlari, Buxoro, Kogon Qorovulbozor tumanlarida esa viloyatning 22,9% uzumi yetishtiriladi. Bu imkoniyatdan foydalanib, ixtisoslashtirish asosida ushbu mahsulotlarni qayta ishlab, eksport qilish jarayonini yo‘lga qo‘yish samarali bo‘ladi. Chunki, ho‘l mevalar va poliz ekinlarining eksporti ko‘plab xarajatlar va murakkab logistika xizmatlarini talab qiladi. Buxoro viloyatining iqlimi aynan ushbu qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun qulaydir. Masalan, uzum, meva va rezavorlarni yetishtirish jarayonida suvga bo‘lgan talab nisbatan past bo‘lib, bu suv tanqisligi muammosi mavjud hududlar uchun maqbul imkoniyat hisoblanadi. Shuningdek, quyoshli o‘lkamizda yuqori darajadagi glyukozaga boy mahsulotlarni yetishtirish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar orqali qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsion yechimlar va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

2023 yilda qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda bo‘lgan va salohiyati yetadigan hududlar tanlab olindi. Buxoro viloyati uchun tumanlardagi qishloq xo‘jalik maxsulotlarini qayta ishlab eksport qilish afzal hisoblanadi. Chunki, viloyatdan qishloq xo‘jalik maxsulotlarini xorijga eksport qilish ko‘p xarajat talab qiladi. Buxoro viloyatida suv muammosi mavjudligi

[5] Muallif ishlanmasi.



ISSN 3030-3907

sababli, aynan uzum, meva va rezavorlar hamda poliz ekinlarini yetishtirishda suv kam talab qilinadi. Shuni inobatga olib, qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni olib kirish va jahon bozori talablari darajasidagi tovarlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish samarali hisoblanadi.

Past jozibador hududlarda investitsiyalarni jalb qilishning eng samarali yo‘li sifatida innovatsiyalarni targ‘ib qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish orqali amalga oshirish mumkin. Bunda hududlarda innovatsion loyihalarni targ‘ib qilish markazlarini tashkillashtirish va bu loyihalar uchun soliq imtiyozlari ajratish lozim. Shundagina investorlar investitsion salohiyati past bo‘lgan hududlarga investitsiya kiritishdan manfaatdor bo‘ladi. Manfaatlar past jozibador hududlarda ham korxonalarning tashkil etilishiga olib keladi. Natijada korxonalarning tashkil etilishi zanjir sifatida bu hududlarda infratuzilma ob’yektlari shakllanadi hamda xizmatlar sohasi rivojlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro shahri boshqa shahar va tumanlarga nisbatan yuqori jozibadorlikka ega hudud hisoblanadi. Buni inobatga olib, Buxoro shahri imkoniyatlaridan foydalanib, boshqa hududlarni jozibadorligini oshirish mumkin. Buxoro shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni shahar markazidan tashqariga chiqarishni rag‘batlantirish lozim.

Buxoro shahridagi aholi diqqatga sazovor joylarining asosiy qismi, jumladan turli kompaniyalar, o‘quv va ilmiy muassasalar, do‘konlar, restoranlar va kafelar, shahar ichidagi kunlik migratsiyani ko‘paytiradi. Shahar markazida jamlangan bu obyektlar, shuningdek, chekka hududlarda ommaviy uy-joy qurilishi izchil ravishda kuzatilmoqda. Natijada, aholi yashaydigan joylar bilan ish joylari o‘rtasidagi masofalar oshmoqda, bu esa hududga kiruvchi va chiqadigan transport oqimlarini kuchaytirmoqda.

Bunday markazlashgan shahar tuzilishi, yo‘lovchi va shaxsiy transport oqimlarining ortishi bilan birga, mavjud transport infratuzilmasining yuklanishini oshiradi, bu esa har yili yangi transport muammolarini keltirib chiqaradi. Ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda, shahar ichida kundalik migratsiyani kamaytirish maqsadida biznes faoliyatini markazsizlashtirish zaruriyati tug‘iladi.

Biznes faoliyatini va ish joylarini aholining yashash joylari yaqinida joylashtirish, aholi uchun ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi va shaharlarni markazsizlash tirajini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda, shaharning iqtisodiy faoliyati va tarixiy markazini aniq ajratib ko‘rsatish orqali, transport yukini maqsadga muvofiq ravishda taqsimlash imkoniyati yaratiladi. Natijada, aholi o‘zi yashayotgan hududda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, shahar ichidagi yaqin muhitni yanada yengillashtiradi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Aripov 2022-yil



ISSN 3030-3907

26-dekabrda imzolagan hukumat yig‘ilishining bayonnomasi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Buxoro shahridagi 29 ta davlat obyektini boshqa joyga ko‘chirish rejalashtirilgan. Buxoro shahriga keladigan mahalliy va xorijlik turistlar oqimi ko‘payganligi sababli, eski shahar hududida yashovchi aholiga qulay sharoit yaratish hamda shahardagi yuklamalar hajmini qisqartirish maqsadida „Boqiy Buxoro“ etnografik markazi qurishga qaror qilindi[6]. Loyiha 2024−2026-yillarga mo‘ljallangan. Chet ellik investor sifatida Singapurning nomi to‘liq bo‘lmagan (PTE Ltd) kompaniyasi belgilangan. Avvalroq loyiha pudratchisi sifatida Singapurning Enter Engeneering PTE Ltd kompaniyasi tanlangandi[7]. Tadqiqotlarning natijalari Buxoro shahrining xizmatlar sohasi uchun yuqori salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Buxoro shahrida joylashgan boshqaruv organlari, turli kompaniyalarning ofislari, o‘quv muassasalari, ilmiy muassasalar, do‘konlar, restoranlar, kafelar va boshqa xizmat ko‘rsatish muassasalari aholi oqimining yuqoriligi bilan birga, bu sohaning rivojlanishini ta'minlaydi.

Viloyatning boshqa hududlarida ham xizmatlar sohasining rivojlanishi uchun boshqaruv va kompaniyalar ofislari, ta'lim va ilmiy muassasalar hamda ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishni qo‘llab-quvvatlashni muhim deb bilamiz. Aholi soni kam bo‘lgan hududlarda oliy ta’lim muassasalarining ochilishi, o‘qituvchilar va talabalar sonining ortishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, hududda do‘konlar, restoranlar, kafelar va boshqa xizmat ko‘rsatish tashkilotlarini ochish uchun investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Iste'molchilar oqimining oshishi investorlarning faoliyatini kengaytirishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Buxoro viloyatining turizm sohasidagi imkoniyatlari hududlarning o‘ziga xos jozibadorliklari va mintaqaviy manfaatlariga mos ravishda rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratadi. Turizmni mintaqaviy iqtisodiyotning muhim va istiqbolli tarmog‘i sifatida ko‘rish mumkin. Tahlillarga asosan, Buxoro shahrida, shuningdek G‘ijduvon va Romitan tumanlarida turizm salohiyati yuqori darajada joylashgan. Bu, o‘z navbatida, ziyorat turizmi orqali hududning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmi, o‘z navbatida, hududlarga investorlarni jalb qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu mexanizm orqali yurtimizning investitsiya muhitini yanada takomillashtirish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi. Mexanizmda keltirilgan parametrlar to‘g‘ri amalga oshirilsa, har qanday investorni qiziqtirishi va ularning investitsiya qarorlarini samarali ravishda shakllantirishi

[6] https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/01/ogcha/
[7] https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/01/ogcha/



ISSN 3030-3907

mumkin. Shuningdek, ushbu parametrlar investorlarning risklarini kamaytirish va ular uchun yangi imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Maqsadga muvofiq ravishda, investorlarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari bilan birga, invest.gov.uz saytida mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan innovatsion loyihalarning tadbirkorlik faoliyatida qo‘llanishi bo‘yicha beriladigan imtiyozlar ro‘yxati ham taqdim etilishi muhimdir. Bunday yechim investorlarning innovatsion sohalarga qiziqishini oshirishda va ularda iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, investorlar mahalliy olimlar bilan hamkorlik qilish va ularning loyihalari ustida tajribalar o‘tkazishga qiziqish bildirishi natijasida ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi. Ushbu hamkorlik innovatsion faoliyatni rivojlantirishga, shuningdek, mahalliy olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlarining amaliy natijalarini ta'minlashga katta hissa qo‘shadi. Olingan natijalar esa iqtisodiy taraqqiyot va hududlar rivojini ta'minlashda ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida, mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Очилов Ш. Б., Бобоев А. Ч., Акрамова О. К. Пути повышения инвестиционной привлекательности регионов за счет снижения инвестиционных рисков в сельском хозяйстве //Информатика. Экономика. Управление/Informatics. Economics. Management. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 0401-0410.

2. Boboev A. C., Akramova O. Q. Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishda korxonalarning o‘rni va ahamiyati //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1537-1542.

3. Rasulova N. N. Evaluating the Efficiency of Leading International Carpet Manufacturing Companies Using the DEA Model //European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 8-19.

4. Davronovna, R. D. "Analysis of Factors Affecting the Efficiency of Research and Innovation Activities of Higher Education Institutions." *European Journal of Economics, Finance and Business Development* 2.1 (2024): 9-18.



ISSN 3030-3907